



O'ZBEK VA FRANSUZ BADIY ASARLARIDA TASVIRLANGAN OILA FENOMENINING BADIY TALQINI¹

Sultansaidova Saodat

filologiya fanlari nomzodi,

Jahon adabiyoti kafedrasining dotsenti

E-mail: sultansaidova777@gmail.com

ANNOTATSIYA

There are many works in Uzbek and French literature that express an opinion about the family. In these works, the purpose of showing which side of the family is highlighted in the novels in which the theme of the family is expressed in Uzbek and French fiction, giving a brief interpretation to them, introducing the readers through them and contributing to the work of raising healthy family members, is expressed the goal of effectively influencing the direction of family development. we planned to perform the following tasks: 1. Before comparing the works of Pirimkul Kadirov and Roger Martin du Gard, we will study Uzbek and French novels with family themes as factual material; to show the important scientific works on the topic of the family and to recommend them to the attention of those interested in the topic of the family. Research methods of literary studies are diverse. We used realism, comparative-literary method, biographical method, artistic method, typological method. There are various interpretations of the method of realism. Among them, Ulugbek Hamdam's comment sheds light on the general nature of the works we are studying.

KALIT SO'ZLAR

Badiiy asarlar, oilaning hayot tarzi, ota-onaning dunyo-qarashi, u yashagan davr va muhit, o'tmishdagi, hukmdorlar, tadqiqot metodlari.

Received: August 6, 2024

Accepted: August 23, 2024

Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

¹ **Iqtibos keltirish uchun (For citation, для цитирования):**

Sultansaidova S. O'zbek va fransuz badiiy asarlarida tasvirlangan oila fenomenining badiiy talqini. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2024. — Vol.1, № 4. — B. 230-239.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФЕНОМЕНА СЕМЬИ, ИЗОБРАЖЕННОГО В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УЗБЕКСКОЙ И ФРАНЦУЗСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Султансаидова Саодат

кандидат филологических наук,

доцент кафедры мировой литературы

Узбекский государственный университет мировых языков

Эл. почта: sultansaidova777@gmail.com

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В узбекской и французской литературе немало произведений, авторы которых обратились к феномену семьи. В настоящей статье мы рассматриваем, какие аспекты существования семьи нашли свое отражение в узбекской и французской художественной литературе, даем им краткую характеристику, знакомим читателей с особенностями их художественного воплощения и анализа, чтобы посредством этого повлиять на восприятие семьи в современном обществе как среды, способствующей воспитанию здоровых членов общества. Прежде чем сравнивать произведения Пиримкула Кадырова и Роже Мартена дю Гара, мы отобрали узбекские и французские романы, освещающие семейную тему, которые послужили для нас фактическим материалом; проанализировали наиболее важные научные работы по теме семьи, чтобы рекомендовать их вниманию интересующихся данной темой. Методы исследования, использованные в статье, разнообразны. В частности, при анализе реалистических произведений мы использовали сравнительно-литературный, биографический, типологический методы. Отмечая, что существуют различные интерпретации реализма как литературного метода, мы опирались на мнение Улугбека Хамдама, которое проливает свет на общий характер изучаемых нами произведений.	Художественны е произведения, образ жизни семьи, мировоззрение родителей, исторический период и среда, становление личности, правители прошлого, методы исследования.

Received: August 6, 2024

Accepted: August 23, 2024

Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

AN ARTISTIC INTERPRETATION OF THE FAMILY PHENOMENON DEPICTED IN WORKS OF UZBEK AND FRENCH LITERATURE

Sultansaidova Saodat

*candidate of philological sciences,
Associate Professor of
the Department of World Literature
E-mail: sultansaidova777@gmail.com*

ABSTRACT	KEYWORDS
There are many works in Uzbek and French literature that express an opinion about the family. In these works, it is necessary to show which side of the family is covered in the novels, in which the theme of the family is expressed in Uzbek and French fiction, to give a brief interpretation of them, to introduce the readers through them, and to contribute to raising healthy family members. Based on this, we planned to perform the following tasks: before comparing the works of Pirimkul Kadirov and Roger Marten du Gar, we studied Uzbek and French novels with family themes as factual material. exit; to show the important scientific works on the topics about family, and to recommend them to the attention of those interested in the topic of the family. Research methods of literary studies are diverse. We used realism, comparative-literary method, biographical method, artistic method, typological method. There are various interpretations of the method of realism. Among them, Ulugbek Hamdam's comment sheds light on the general nature of the works we are studying.	Family lifestyle, worldview of parents, period in which he lived, environment, in which he lived, rulers of the past, research methods. Received: August 6, 2024 Accepted: August 23, 2024 Available online: November 15, 202

Copyright © 2024 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons
Attribution International License (CC BY 4.0).
<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KIRISH

O'zbek va fransuz adabiyotida oila haqida fikr bildirilgan asarlar anchagina. Ana shu asarlarda o'zbek va fransuz badiiy adabiyotida oila mavzusi o'z ifodasini topgan romanlarda oilaning qaysi qirrasini yoritilganini namoyon etish, ularga qisqacha talqin berish, ular vositasida kitobxonlarni tanishtirish va sog'lom oila a'zolarini tarbiyalash ishiga hissa qo'shish bilan oila taraqqiyotining yo'naltirilishiga samarali ta'sir ko'rsatish maqsadi ifodalanadi. Shundan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarishni rejalashtirdik: Pirmul Qodirov va Roje Marten dyu Gar asarlarini qiyoslashdan oldin faktik material sifatida oila mavzusi yoritilgan o'zbek va fransuz romanlarini o'rganib chiqish; oila mavzusi bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy ishlarning muhimlarini ko'rsatish va oila mavzusi bilan qiziquvchilar e'tiboriga tavsiya etish. Adabiyotshunoslikning tadqiqot metodlari xilma-xil. Biz realizm, qiyosiy-adabiy metod, biografik metod, badiiy metod, tipologik metod kabilardan foydalandik. Realizm metodi haqida xilma-xil izohlar mavjud. Shulardan Ulug'bek Hamdamning bergan izohi biz tadqiq qilayotgan asarlarning umumiy xususiyatini yoritadi.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi – bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlangan yoshlarga bog'liqdir. Har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqidildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalariga olib chiqish, avvalo, oila, tarbiyachi va o'qituvchi, murabbiylar zimmasiga sharaflilik va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

Prezident Mirziyayev: "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib, o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqligini" alohida ta'kidlaganlar. Albatta, bu gapning zamirida oila muhim ahamiyatga egaligi ifodalanganini anglaymiz.

Prezident Farmonida oilani mustahkamlash bo'yicha shunday deyiladi: «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada

qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida», deb nomlanadi. Shundan kelib chiqib, «Sog'lom oila - sog'lom jamiyat» g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish» konseptual g'oyasi negizida oila mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan muhim vazifalar belgilanganligi, ularni amalga oshirishda mazkur mavzuga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga yetarli asos bo'la olishi aytiladi. Haqiqatdan ham so'nggi yillarda e'lon qilinayotgan maqolalar, himoya qilinayotgan dissertatsiyalar, yozilayotgan kitoblar bu mavzuning o'rganilishi dolzarbligini ko'rsatadi. Shuningdek, Prezident Shavkat.Mirziyayevning mana bu so'zlari ham mavzuning dolzarbligini yana bir tomondan ta'kidlaydi: Prezident Sh. Mirziyoyev shunday deydi: "... bugungi tez o'zgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o'rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko'plab murakkab savollarga javob topish qiyin». Mana bu gaplar ham oila masalalarini chuqur o'rganish dolzarb ekanligini bildiradi.

Biz o'zbek va fransuz adabiyotida oila mavzusidagi asarlarni qiyoslab, tahlil qilishni maqsad qilib oldik. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar bajarildi:

1.Oilaviy hayot tasvirlangan o'zbek va fransuz badiiy asarlarini tahlil qilishni belgilab oldik.

2.Har bir xalqning badiiy adabiyotida oila masalasida qanday muammolar mavjudligi aniqlandi.

3. Buning uchun, avvalo, o'zbek va fransuz romanlari sarlavhasiga e'tibor qaratildi, so'ngra bu asarlarning har biridagi oilalar haqida umumiy ma'lumotlar berildi.

Bizning asosiy tavsif va tahlil obyektimiz Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Xumoyun va Akbar" ("Bobur", "Avlodlar dovoni") va Roje Marten Dyu Garning "Tibo oilasi" ni qiyoslash bo'lganligi uchun boshqa asarlarda oila mavzusi qanday yoritilgani, ulardagi mavzular nimasi bilan boshqalardan farq qilishiga ekskurs sifatida to'xtab, asosiy ishimizning kiritma voqeasi deb hisobladik.

ASOSIY QISM

Ikki va undan ortiq badiiy asarni qiyoslash uchun, avvalo, tahlil metodologiyasini aniqlash koʻzda tutildi. Bu borada professor G. Xalliyevaning “Qiyosiy adabiyotshunoslik” nomli qoʻllanmasidagi fikrlarga murojaat qilindi. Unga koʻra, quyidagi va boshqa muammolar boʻyicha maʼlumotlar berilgan :

1. Ilmiy-tadqiqot metodlari va qiyosiy tahlil.
2. Qiyosiy-tarixiy va chogʻishtirish metodlari xususida.
3. Adabiy komparativistikaga xos xususiyatlar.
4. Filologik komparativistika haqida tushuncha va boshqalar.

U qiyosiy-tarixiy metod haqida shunday deydi: “Qiyosiy adabiyotshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod va uning asoschilari, asosiy tushunchalari, makro va mikro komparativistika, Sharq va Gʻarb adabiy aloqalaridan ... foydalanish mumkin.” (Xalliyeva G., 2020, 3).

Shuningdek. badiiy asarni tahlil qilishning yana shunday metodlari mavjudki, ulardan biri realistik metoddur. Bu haqda Ulugʻbek Hamdam shunday deydi: “...hamma izmlar, avvalo, realizm tufayli uning qarshisida mavjuddir. Realizm shohkoʻcha boʻlsa, romantizm, naturalizm, modernizm kabi oʻnlab boshqa izmlar shu koʻchadan boshlanuvchi, uning yon-verida uzanibgina mavjud boʻlishi mumkin boʻlgan yondosh koʻchalardir. (Hamdamov U., 2020, 196)

“Realizm ijodiy metod sifatida hayotiy haqiqatni toʻla va mukammal tasvirlash, uni badiiy umumlashtirish imkonini beradi. Realizm konkret va tarixiy xarakter kasb etadi. Chunki u muayyan bir nuqtada qotib qoluvchi dogma boʻlmay, balki ijtimoiy hayot, inson ongining yuksalishi bilan bogʻliq holda oʻsib, rivojlanib boradi.” (N.Xotamov, B.Sarimsoqov, 1979, 253). Biz bu koʻrsatilgan metodlardan oʻrni bilan tadqiqotda foydalandik.

Endi oʻzbek adabiyotida oila mavzusi yoritilgan asarlarga toʻxtalamiz. Masalan, Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida urushgacha va urush davomida oʻzbek oilasining hayot tarziga, “Ikki eshik orasi”da oʻzbek oila aʼzolarining boshiga qora kunlar tushganda, Ollohning sabrli va matonatli bandalari sifatida chidam bilan yashaganliklariga, , “Bahor qaytmaydi”; asarida oilaga xiyonat

qilishning javobgarligi va bunday gunoh ishdan saqlanish shart ekanligiga kitobxon e'tibori qaratiladi. Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" asari qahramoni, bir oilaning muhim a'zosi Yusuf ham bu kurashlarda qurbonlar beradi: do'stlaridan, ishidan, oilasidan, ko'zining oq-u qorasi — farzandidan judo bo'ladi. Qani endi har bir oila a'zosi shunday bo'lsa... Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", asarida, muallif shunday yozadi: "Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deyilar. Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi «xon zamonlari»dan belguladim. " . Mana shunday "qora kunlar"da o'zbeklarning o'sha vaqtdagi tipik boy oilalaridan bo'lgan Yusufbek hoji va Mirzakarim qutidor xonadonlarining hayot kechirishi tasvirlangan. "Mehrobdan chayon", romanida ikki-uch oilaning hayoti tarzi ko'rsatilgan. Bir oila Solih mahdum, ikkinchi oila Xudoyorxon harami, uchinchi mulla Abdurahmonning bolaligi va yoshligi o'tgan oilaning har biriga xos hayoti haqidadir. Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi uch romandan iborat bo'lgani uchun nihoyatda ko'p oilalarning hayotini ko'rsatish mumkin. Bu asarlarning har birida o'zbek oilasining biror qirrasini yoritilgan. Bizning asosiy tahlil obyektimiz Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar," "Xumoyun va Akbar" ("Bobur" , "Avlodlar dovoni") hamda Roje Marten Dyugarning "Tibo oilasi" ni qiyoslash bo'lganligi uchun boshqa asarlarda oila mavzusi qanday yoritilgani, ulardagi mavzular nimasi bilan boshqalardan farq qilishigagina e'tibor berildi.

Fransuz adabiyotida ham oila haqida yaratilgan asarlar bisyor. Ulardan ayrimlarini misol qilib keltiramiz. Andre Moruaning "Taqdir o'yinlari" (1928), "Oilaviy davra" (1932), Jorj Sandning " (Avrora Dyudevan Jorj Sandning haqiqiy ismi) ikki jildlik "Konsuela" va uning davomi sifatida "Grafinya Rudolshtadt" romanlari mavjud. Bu asarlarda fransuzlarning turli qatlamdagi oilalari hayoti mahorat bilan tasvirlangan. Onore de Balzakning "Yevgeniya Grande", "Gorio ota", "Yo'qotilgan orzular", "Yaltirash" va "Kurtizankalar qashshoqligi", "Gobsek", "Sag'ri teri tilsimi" ("Shagrenevaya koja") romanlari, shuningdek, Rablening "Gargantuya va Rantagryuel" kabi asarlari ham oila haqidadir. Yuqorida o'zbek va fransuz adabiyotidan oila haqidagi ayrim asarlar sanab o'tildi. Ularni tahlil va talqin

qilish boshqa bir ilmiy ishning obyektidir.

Pirimqul Qodirovning oila to'g'risidagi asarlari: "Olmos kamar", "Yulduzli tunlar), "Ona lochin vidosi" kabi romanlari, "Erk" qissasi mavjud. Bu ro'yxatni davom ettiraverish mumkin. Biz oila haqida eng ko'p ma'lumot mavjud bo'lgan asarlarni sanab o'tdik. Ishimizning obyekti "Yulduzli tunlar" ("Bobur") va "Xumoyun va Akbar" (Avlodlar dovoni)"dir. Keyingi qismlarda batafsil tahlil va talqin qilinadi. Pirimqul Qodirovning quyidagi romanlarida oila haqida anchagina ma'lumot berilgan bo'lib, ular haqida qisqacha to'xtalamiz. "Olmos kamar" romani jamiyat, oila, muhit, xalqparvarlik, ota-onaga, umr yo'ldoshga, tabiatga samimiy va to'g'ri munosabat haqidagi asardir. Albatta, hayotda dialektikaning qarama-qarshiliklar kurashi va birligi qonuni amal qilganidek, oilaviy hayot ham shunga ko'ra taraqqiy etadi. Romanning bosh qahramoni bu kurashlardan sharaf bilan chiqadi. U, avvalo, oilasi, rafiqasiga, ota-onasiga, ularning ajdodlaridan roman vositasida yetib kelayotgan udumlarga, ekologik muammolarga, atrofidagi har bir odamga juda ehtiyotkorlik, adolat, insonparvarlik bilan munosabatda bo'ladi. Roman bejiz "Olmos kamar" deb nomlanmagan. Bizningcha, P.Qodirov oilani ijtimoiy hayotning "Olmos kamari" deb ataydi, chunki oila jamiyatning ustunidir. Oila va uning a'zolari bo'lmasa, jamiyat ham mavjud bo'la olmaydi. Yozuvchi "Ona lochin vidosi" romanida Temuriylar sulolasining onasi bo'lmish Gavharshodbegim timsolida butun bir sulolaga boshchilikni, onalikni Gavharshodbegim zimmasiga tushishini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Nevaralar, barcha avlodlarni kamol toptirishni Begim oilaning kattasi sifatida ado etadi." (Abdurahimov D., Otabekova O.X., 2022, 234)

Shuningdek, Onore de Balzakning "Yevgeniya Grande", "Gorio ota", "Yo'qotilgan orzular", "Yaltirash" va "Kurtizankalar qashshoqligi", "Gobsek", "Sag'ri teri tilsimi" ("Shagrenevaya koja") romanlari, shuningdek, Rablening "Gargantuya va Rantagryuel" kabi asarlari ham oila haqidadir.

Onore de Balzak — fransuzlarning buyuk yozuvchisi. Uning "Inson komediyasi" nomli ko'p sonli romanlar turkumida rang-barang, shafqatsiz, ko'p qiyofali olamni yaratadi. U bu asarlarda o'zining zamonaviy jamiyatidagi barcha sinf

oila vakillarining ahloqiy sifatlarini ochib berdi. Bu nashrga muhabbat haqidagi povestlarni va hikoyalarni kiritdi. Balzak bu syujetlarni “shaxsiy hayotning ko‘rinishlari” deb ataydi.

Albatta, shaxsiy hayot oilada kechadi. Bu asarlar: “Shahar tashqarisidagi bal”, “Qo‘shimcha oila” («Pobochnaya semya»), “Umr yo‘ldoshlar kelishuvi”, “Ayol silueti”, shuningdek, “Sharaflangan Godissar” («Proslavlenный Godissar») nomli ajoyib qissa yaratadi. Unda Parijning ayyor kommivoyajeri (biror firmaning shaharma- shahar yuruvchi savdo agenti bo‘lib, xaridorlarga namunalar va katalog asosida mahsulotlarni tavsiya qiladi) tasvirlangan. Unda Parijning barcha illatlariga to‘yingan, o‘zining yuziga “qishloqi soddadil” qiyofasini chaplab olgan shaxs edi. Onore de Balzakning mashhur asari ehtirosga va gunohli istaklarga to‘la bo‘lib, undagi kambag‘al talaba Ejen de Rastinyak barcha vasvasalarga tushadigan odam bo‘lgan.

Onore de Balzak Tur shahrida, dehqonlar oilasidan kelib chiqqan, unchalik boy bo‘lmagan amaldor oilasida tug‘ilgan. Oila o‘zining Bals familiyasini nufuzliroq ko‘rinadigan Balzakka almashtirgan edi. Bizningcha Onore to‘rt farzandning to‘rtinchisi bo‘lgan. Uning onasi tabiatan sovuqqon va xudbin bo‘lib, kichik o‘g‘li Anridan boshqa farzandlarini yaxshi ko‘rmagan. Onasining sovuqqon qattiqqo‘lligi bo‘lajak yozuvchining qalbini qattiq yaralagan edi. Qirq yoshli Balzak mening hech qachon onam bo‘lmagan, deb yozgandi. Uni to‘rt yoshigacha qishloqdagi enaga katta qilgan. Onore sakkizga to‘lganda onasi uni shafqatsiz monastir intizomiga ega Vandom kollejiga yuboradi. Bu yerda jismoniy jazolar va karter (maxsus izolyatsiya qilingan kamera) rejimi qo‘llanar, shahar bo‘ylab sayr qilish taqiqlangan, bolalar hatto ta’tilda ham uyiga jo‘natilmasdi. Kollejdagi olti yillik ta’limdan so‘ng oila Onoreda chuqur asabiy zo‘riqish paydo bo‘lgani uchun uni uyga qaytarib olib kelishadi. Balzak hayotiga tegishli bo‘lgan ushbu vaziyat Roje Marten dyu Garning “Tibo oilasi” asarida syujet tarkibiga kiritilgan.

Balzakning “Insoniyat komediyasi” uchun yozilgan 95 ta romani o‘sha davrdagi fransuz jamiyatining haqiqiy qiyofasini ochib beradi, Balzakning o‘zi uni “asrimizning buyuk komediyasi” yoki “Iblis komediyasi” deb atagan edi. “Insoniyat

komediyasi” nomi ostida birlashgan 95 romandan tashqari, rejaga ko‘ra, u 140 romandan iborat bo‘lishi ko‘zda tutilgan. 137 romandan 91 tasi tugatilgan va 46 tasi tugatilmagan.

Yuqorida tadqiqotimizdagi o‘zbek va fransuz adabiyotidan oila haqidagi ayrim asarlar tahlil qilindi.

1981-yil “Yulduzli tunlar” romani uchun P. Qodirovga Hamza nomidagi respublika davlat mukofoti taqdim etilgan. Marten dyu Gar 1937-yilda Nobel mukofoti laureati bo‘lgan. Bu mukofot “Insonni tasvirlashda badiiy quvvat, haqiqat va zamonaviy hayotning muhim tomonlarini kuchli yoritgani uchun” berilgan.

Quyidagi natijalar qayd qilindi:

1.Oila mavzusi ifodalangan o‘zbek va fransuz adabiyotlarini tahlil qilishdan ma’lum bo‘ldiki, qaysi xalq bo‘lmasin, ularda oila mavzusida doimiy mavzu bo‘lib qolaveradi va mualliflar yana bunday badiiy asarlar, ilmiy ishlar yozishadi.

2. Kitobxon har bir oilaning hayot tarzi, har bir a’zosi obrazining shakllanishida ular yashagan oiladagi ota-onaning dunyoqarashi, davr va muhit katta rol o‘ynashini bilib boradi. Shulardan kelib chiqib tahlil obyekti qilib olingan badiiy adabiyotlarda tasvirlangan oilalarga qisqacha tavsif va talqin berildi. Bu ish oila qurmoqchi bo‘lgan yoshlarga xulosa chiqarishda , fikrlashda yordam berishi mumkin.

Ushbu mavzu ichi sirga to‘la, misli ummon, tadqiq qilgan sari uning sirlari namoyon bo‘laveradi. Oila mavzusidagi muammolar juda behisob. biri tadqiq qilinsa, boshqasi yechimini kutib turadi, chunki davr o‘zgaradi, bu jarayon asnosida oilaga xos xususiyatlarda ham yangiliklar yuz bera boshlaydi. Demak, bu mavzu hamisha dolzarb bo‘lib, tadqiq qilinganda, qandaydir yangi ma’lumotni namoyon qiladi. Shu ma’noda ushbu maqola oila haqidagi sirlarning bir qirrasini ochadi va uning xususiyatlarini yuzaga chiqaradi.

1. Badiiy asarni shunday targ‘ib qilish kerakki, undan parcha eshitgan yoki o‘qigan kitobxon shu asarni topib o‘qishni xohlab qolsin. Kitobni o‘qigach, o‘tmishdagi hukmdorlar, xususan, Xudoyorxon oilasi – harami an’analari, yashash

tarzi bilan tanishadi, tasavvurga ega bo'ladi va hayotida bunday vaziyatga tushmaslik uchun harakat qilishi mumkinligini anglab yetadi.

2. Berilgan badiiy asarlar kitobxonlarni kitob o'qishga chorlashi mumkin, chunki uning tavsif va talqinlar e'tiborni tortadigan xususiyatlarga ega bo'ladi.

3. Badiiy asarni o'qigach, har bir xalq vakili o'z oilasiga xos jihatlar haqida o'ylab, oilasi hayot tarzini o'zgartirishga harakat qilishi mumkin.

4. Keltirilgan badiiy adabiyotlarning sarlavhalari ham, ularga berilgan annotatsiya izohlari ham turli-tuman fikrlarni uyg'otadi, asarni o'qigach, xayolan ularga javob topish mumkinligi anglanadi.

XULOSA

1. Badiiy adabiyot o'qiladigan oila farzandlarida ikki xil dunyoqarash paydo bo'lishi mumkin: ham realistik, ham romantik. Odamlar bilan munosabatda o'qilgan badiiy adabiyotdan qahramonlar o'rtasidagi munosabat ta'sir qilib, beixtiyor ularga taqlid qilishi mumkin. Antik davrda Aristotel badiiy adabiyotni bejiz "taqlid qilish" demagan edi. (Aristotel, 1980)

2. Badiiy asarning realistik xususiyati kitob o'qiydigan oilada oila a'zolarining u yoki bu muammoni hal qilishida to'g'ri yo'l ko'rsatishga motiv bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, o'tmishdagi hukmdorlar, xususan, A. Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asaridagi Xudoyorxon oilasi – harami an'analari, yashash tarzi bilan tanishtiradi, tasavvurga ega qiladi va hayotida bunday vaziyatga tushmaslik uchun harakat qilishga undaydi.

2. Ko'rsatilgan badiiy asarlar kitobxonlarni kitob o'qishga chorlaydi, chunki tasvirlanayotgan talqinlar e'tiborni tortadigan xususiyatlarga egadir.

3. Keltirilgan badiiy adabiyotlarning sarlavhalari ham, ularga berilgan tavsif-u talqinlar ham turli-tuman munozarali fikrlarni uyg'otishi mumkin. Unda o'qilgan badiiy asarlar javob topishga yordam berishi mumkin bo'ladi.

Ma'lum bo'ldiki, jahon adabiyotidagi har qanday asarda yo batafsil, yoki qisman bo'lsa ham oila mavzusi yoritilgan. Inson oilada dunyoga keladi, uning bag'rida voyaga yetadi, uning bag'ridan uchirma bo'ladi. Garchi sharoit taqozosi

bilan oila bilan butun umrga ayrilsa ham oilasi haqidagi xotiralar uni tark etmaydi o'qin-o'qin bo'lsa ham oilasi, u yerda o'tgan bolalik va yoshlik davrlarini qo'msabat uradi. Shunday ekan, oila a'zolariga badiiy asar o'qitish yo'llarini topish lozim. Hamma o'z farzandlarini yoshligidan o'z holiga qo'yib, turli ko'chalarga kirishiga imkon yaratmasdan, har doim badiiy asarlarni o'qishga o'rgatilsa, nafaqat oilaning, balki jamiyatning ham rivojlanishiga katta hissa qo'shilgan bo'lardi.

Biz bu maqolada mashhur yozuvchi Onore de Balzakning biografiyasidan kichik bir lavhani taqdim etdik. Balzakning bolaligi juda og'ir o'tgan, chunki onasi faqat bitta farzandini yaxshi ko'rgan. Yuqorida bu haqda aytili. Umid qilamizki, bu biografik ma'lumotlar u bilan tanishgan odamga o'zining hayoti haqida o'ylab ko'rishga, hayotini o'zgartirishga harakat qilishga stimul beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Farmoni. "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida". 2020 yil 18 fevraldagi 5938-son.
2. Abdurahimova D., Otabekova O.X. Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" asarida ayol obrazi", 2022.
3. Aristotel. Poetika – Toshkent. 1980. 152- bet.
4. Galperina Ye. "Semya Tibo" <http://20v-euro-lit.niv.ru/galperina-semya-tibo>
5. Morua Andre. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/andre-moruaissertasii> Krasnodar 2011.C.3
6. Krapivka I. A. Semea kak factor formirovaniya sennostnykh orientatsiy podrastayushego pokolenieya (regionalniy aspekt) (Avtoreferat dissertatsii Krasnodar-2011. S. 7.
7. Hamdamov U., Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernizm. Toshkent.- 2020, 6.196

8. “Oila” markazi. “Bolalar va yoshlarning ma’naviy – axloqiy tarbiyasida oilaning roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.materiallari.. (maqolalar to‘plami) oliymahad.uz <https://oliymahad.uz>
9. “Oila yoki ish... nega ayol faqat bittasini tanlashi kerak?”... (Samarqand davlat universiteti psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi Muqaddam Tovbayeva bilan suhbat) <https://everyday.uz/society>
10. Onore de Balzak Podrobneye na livelib.ru.: <https://www.livelib.ru/author/735/to>
11. Tatiyeva, N.N. Masterstvo psixologicheskogo analiza v romane R. Marten dyu Gara "Semya Tibo" dissertatsiya i avtoreferat. 1983 (disserCat <https://www.dissercat.com> › content › masterstvo-psikhol.).
12. To‘rayeva B. "The Quintessential categories of the author’s time and literary time”– Iranian Journal of Social Science and Humanities Research Vol 5.3 (2017).13
13. Xalliyeva G. Sravnitelnoye literaturovedeniye. Nauchnoye izdaniye.-T.:2020. B.160.
14. Mirzaaxmedova M.G. (2021) Abdurauf Fitrat. «Semya» | Biblioteka Xurshida Davrona — kh-davron.uz.kabular.
15. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik.Toshkent.- akademknashr, 2020. 23-bet
16. Xalliyeva G., Turayeva B. Philological Comparativistics: Content and Significance SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS.– International Scientific Journal Theoretical & Applied Science
- 17.Xalliyeva G. Leyli va Majnun” asari Alisher Navoiy, talqini E.E. Bertels. Imagologiya va qiyosiy tadqiqotlar.2018 № 10. C. 74-81 2018 № 10. C. 74-81. <https://vital.lib.tsu.ru/vital/access/manager/Repository/vtls:000645828>
18. Xotamov N, B.Sarimsoqov, Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati.Toshkent.1979, 253
19. Chelovecheskaya komediya. Material iz Vikipedii — svobodnoy ensiklopedii https://ru.wikipedia.org/wiki/Человеческая_комедия

REFERENCES

1. Presidential Decree. "On measures to improve the socio-spiritual environment in society, further support the neighborhood institution, and bring the system of work with family and women to a new level". No. 5938 of February 18, 2020.
2. Abdurahimova D., Otabekova O.Kh., Abdurakhimova D. (2022) The image of a woman in Pirimkul Kadyrov's "Mother Falcon's Farewell"
3. Aristotle. (1980) Poetics. Tashkent. Page 152.
4. Galperina E. (2011) "Semya Tibo" niv.ru <http://20v-euro-lit.niv.ru/galperina-semya-tibo>
5. Morois Andre. (2011) <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/andre-moruaissertatsii> Krasnodar-2011. S.3
6. Krapivka I. A. Krapivka I. A. (2011) Semea kak factor formirovaniya sennostnykh orientatsiy podrastayushego pokoleniya (regionalniy aspekt) (Avtoreferat dissertatsii Krasnodar. S. 7.
7. Hamdamov U. (2020) World literature: Modernism and postmodernism. Tashkent. p.196
8. "Family" center. "International scientific-practical conference on the role of the family in the spiritual and moral education of children and youth. Materials. (collection of articles)
9. "Family or work... why should a woman choose only one..." (Interview with Muqaddam Tovbaeva, teacher of the Psychology Department of Samarkand State University) <https://everyday.uz/society>
10. Honore de Balzac Read more at livelib.ru: <https://www.livelib.ru/author/735/to>
11. Tatueva, N.N. (1983) Masterstvo psichologicheskogo analiza v novela R. Martin du Gara "Semya Thibault" dissertation and abstract. (disserCat <https://www.dissercat.com/content/masterstvo-psichol>).
12. Torayeva B. (2017) "The Quintessetial categories of the author's time and literary time" – Iranian Journal of Social Science and Humanities Research Vol 5.3 13
13. Khalliyeva G. (2020) Sravnitelnoye literaturovedeniye. Nauchnoye izdaniye.-T.: B.160.
14. Mirzaakhmedova M.G. (2021) Abdurauf Fitrat. "Semya" | Biblioteka Khurshid Davrona — kh-davron.uz.kabular.
15. Khalliyeva G., Turayeva B. Philological Comparativistics: Content and Significance SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS.– International Scientific Journal Theoretical & Applied Science
16. Xalliyeva G. (2018) Leyli va Majnun" asari Alisher Navoiy, talqini E.E. Bertels. Imagologiya va qiyosiy tadqiqotlar. № 10. C. 74-81 2018 № 10. C. 74-81. <https://vital.lib.tsu.ru/vital/access/manager/Repository/vtls:000645828>